

Kan'ondan Misrga



15:00 / 20.06.2021 3152

Ya'qub alayhissalom o'z o'g'illari bilan Kan'ondan Misrga ko'chdilar. Chunki, uning o'g'li Yusuf alayhissalom Misrda hokimlik qilib, buyruq va qaytariqlar uning izmida edi. Ular Kan'onda qo'y boqib, echki sog'ib, jun sotib tirikchilik qilishardi. Misrda esa Yusufning xizmatkorlari ham turfa ne'matlar ichida edi. Ya'qub alayhissalom va uning o'g'illari endi Kan'onda qolib nima qilishadi?! Yusuf alayhissalom otasi hamda og'alarini Misrga chorlab kishi yubordi. Chunki, unga otasi va og'alarisiz taom tatimasdi. Qandoq ham tatisinki, axir (shuncha yil begona yurtda hamma qarindoshlaridan ajralib) yolg'iz yurish osonmi?! Otasi, akalari o'zlarining Kan'ondagi tor hovlilarini to'ldirib o'tirgan bir paytda Yusuf alayhissalom muhtasham saroylarga sig'armidi?! Nihoyat Ya'qub alayhissalom o'g'illarini boshlab Misrga kirib keldi. Otasi va og'alarining tashrifidan behad shod bo'lgan Yusuf ularni izzat-ikrom bilan kutib oldi. Misr o'z xojasining, e'zozli podshohining oilasini quvonch bilan qarshiladi. Shahar ahli bu muborak oilaga

qattiq mehr qo'ydilar. Chunki ular insonlarga karamli, saxovatli bo'lgan Yusufni juda sevar edilar. Kishilar Yusufni o'zlariga mehribon, g'amxo'r og'a sifatida ko'rsalar, Ya'qub alayhissalomni muhtaram ota o'rnida qabul qilgan edilar. Keksa yoshli nuroniy Ya'qub alayhissalomga shahar ahli xuddi o'z o'g'illaridek bo'ldi. Ya'qub va bolalari uchun Misrda yashash ma'qul keldi va Misr ular uchun vatan bo'lib qoldi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad